

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIK XARITA VA ATLASLAR BILAN ISHLASHDAGI MUAMMOLAR

**Nurmamatov Jasur Tashpulatovich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,

Geografiya va ekologiya fakulteti magistranti,

Samarqand viloyati, Payariq tumanidagi 79-maktab, geografiya o'qituvchisi.

[jassurziyo88@gmail.com](mailto:jassurziyo88@gmail.com)

### *ANNOTATSIYA*

*Maqolada umumta'lim maktablarida geografik xaritalarning dars jarayonidagi ahamiyati, geografik xarita va atlaslar bilan ishlashdagi muammolar hamda ularning yechimlari haqida takliflar yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: geografiya, xarita, masshtab, globus, atlas.*

## PROBLEMS IN WORKING WITH GEOGRAPHICAL MAPS AND ATLASES IN HIGH SCHOOLS

### *ANNOTATION*

*The article highlights the importance of geographic maps in the teaching process in general education schools, problems in working with geographic maps and atlases, and suggestions for their solutions.*

*Key words: geography, map, scale, globus, atlas.*

**KIRISH.** Xarita geografiyaning eng kerakli va eng muhim ko'rgazmali qurollaridan biridir. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida geografik xaritalarga bo'lgan e'tibor kamayib bormoqda. Vaholangki geografik xaritalar nafaqat geografiya fanining balki tarix, biologiya, rus tili va ingliz tili kabi ko'plab xorijiy tillarni

o'rganayotgan o'quvchilarning yo'lini yorituvchi shamchirog'i hamdir. Shunday ekan geografik xaritalarni ommalashtirish va ulardan unumli foydalanishni tatbiq etish zarur.

Geografik xaritalar haqida Baranskiy "Geografiya xarita bilan boshlanib xarita bilan tugaydi", degan va Kolenskiy "Xarita geografiyaning ikkinchi tilidir" degan fikirlarni o'z asarlarida aytib o'tgan.

Hozirgi vaqtda geografik xaritalar dars vaqtida va amaliy mashg'ulotlarda ko'rgazmali qurol bo'lib qolmasdan, balki geografik voqea-hodisalarning tarqalishini ko'rsatuvchi, ularni sifat va miqdor ko'rsatkichlarda tasvirlovchi bilim manbayi hamdir.

Geografik kitoblar singari xaritalar ham geografik bilimlarni o'rgatadi. Kitoblarda yer yuzasi so'z bilan tasvirlansa, xaritada obraz-belgilari voqelikning modelini ko'rsatadi. Lekin uni tushunib yetish uchun xaritani bilish, tushunish kerak. Bu tushunchalar maktabdan boshlanadi.

Xaritani bilish deganda obrazli-belgi yordamida obyektlarning qayerda joylashganini bilish kifoya qilmaydi. Uni bilish uchun xaritani tuzish, o'qish, tushunish, kartografik model tasviriga ega bo'lmoq zarur. Xaritani o'qish va tushunish deganda xaritada voqea va jarayonlarni o'zaro bog'langan, lekin mazmun jihatdan bir-biridan faqrllovchi belgilarni bilamiz. Xaritada tasvirlangan voqea-hodisalarni shartli belgilar yordamida o'qish degani xaritani mazmuni to'liq tushunib yetadi degani emas. Buning uchun xarita mazmuni to'g'risidagi ma'lum darajadagi nazariy geografik bilimlarga ega bo'lmoq kerak.

Xaritani o'qiy olgan kishi xaritada tasvirlangan hududda nimalar borligini biladi, xolos. Xaritani tushungan kishi esa, tasvirlangan voqea va hodisalarni izohlab, har tomonlama ta'riflab, o'zaro bog'liqliklarni ayta oladi.

O'qish va tushunish bir-biriga bog'liq. Xaritani o'qishni bilmasa, uni tushuna olmaydi. Ammo xaritani tushunmasdan o'qiy olsa bo'ladi.

"Xaritani tushunish" tushunchasi yuqorida takidlaganimizdek, tushunishdan iborat bo'lmasdan, xaritaning tayyorlanishini ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun 5-

sinf geografiyasida oddiy topografik plan olish usullari o'rganiladi, chunki mayda masshtabli geografik xaritalarning asosini yirik masshtabli topografik xaritalar tashkil qilinishini o'quvchilar tushunishlari zarur.

**MAQSAD VA VAZIFALARI.** Xarita geografiyaning eng kerakli va eng muhim ko'rgazmali qurollaridan biridir. Xaritalar geografiya ta'limida asosiy o'qitish vositalari bo'lib hisoblanadi. Geografik xaritalardan o'qitishning barcha shakllarida foydalanish mumkin (dars berishda, amaliy ishlarda, mustaqil ishlarda, bilimlarni baholashda va x.k).

Maktab geografik xaritalarining boshqa xaritalardan farqi ularni o'quvchilarning yoshi va rivojlanishiga moslab chiqarilishidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun oddiyroq, tushunishi va o'qishi oson bo'lgan xaritalar chiqariladi. Yuqori sinflar uchun esa murakkabroq xaritalar nashr qilinadi. Umumta'lim maktablarida qo'llaniladigan xaritalarni quyidagi guruhlariga bo'lishimiz mumkin: devoriy xaritalar; darsliklar ichidagi xaritalar; atlaslar; globuslar; chiziqli xaritalar.

Mazmuniga ko'ra devoriy maktab xaritalari juda xilma xil bo'ladi: tabiiy; iqlimiy; tuproq, o'simlik; zoogeografik; geologik; foydali qazilmalar; iqtisodiy, siyosiy, sanoat; qishloq xo'jaligi, transport va x.k. Ular turlicha bo'lgani bilan, umumiy o'xshashlikka ham ega. Ularning barchasi sinfda foydalaniladi, o'quvchilarning uzoqdan ko'rishiga moslashgan bo'ladi, ya'ni masshtabi katta bo'ladi. Mazkur xaritalar yordamida o'quvchilar o'rganishda amaliy va mustaqil ish bajarishda va ma'lum bir savollarga javob berishadi. Shuning uchun ular yaxshi ko'rinishga va katta aniqlikka ega bo'lgan o'lchamda bo'lishi lozim.

Xaritalarning turiga ko'ra ularning o'lchamlari turlicha bo'ladi. Dunyo xaritalari, alohida materiklarning xaritalari hozirgi vaqtda 1,5x1,8m o'lchamda chiqarilmoqda. O'zbekiston va O'rta Osiyo xaritalari ham deyarli mazkur o'lchamda chiqarilmoqda.

Xaritalar aniq va ravshan ko'rinib turishi lozim. Ulardagi geografik voqea va borliqni o'quvchilar 5-6 m dan aniq ko'ra bilishlari lozim. Buning uchun xaritada eng muhim narsalar aks ettiriladi. Masalan, daryo tasvirlanayotganida uning asosiy qismi va eng yirik irmoqlari ko'rsatiladi, mayda irmoqlari esa ko'rsatilmaydi. Xarita ravshan

ko‘rinib turishi uchun ranglar yaxshi tanlanishi lozim. Ranglar bir- biridan keskin ajralib turishi lozim. Devoriy xaritalarga qo‘yiladigan yana bitta talab chiroyli bo‘lishidir. Agar xarita chiroyli va aniq qilib ishlangan bo‘lsa o‘quvchilar ularni oson o‘qishadi va tushunishadi. Maktab xaritalarida relyef asosan turli qalinlikda rang berish bilan amalga oshiriladi. Past tekisliklar to‘q yashil, tekisliklar esa och yashil, balandliklar och jigarrang, o‘rtacha tog‘lar jigarrang, baland tog‘lar esa to‘q jigarrangda beriladi. Xarita geografik nomlar bilan to‘lib qolmasligi kerak. Unda faqat o‘quvchilarni yoshi va bilim darajasiga mos bo‘lgan yozuvlar bo‘lmog‘i lozim. Boshlang‘ich sinf xaritalarida geografik nomlar kamroq va yirikroq yozilishi, o‘rta va yuqori sinflarda ularning soni ko‘payib va o‘lchamlari maydalashib borishi mumkin.

Lekin hozirgi kunda mamlakatimizdagi barcha maktablarda ushbu turdagi xaritalar bor deya olmaymiz. Umumta‘lim maktablardagi yana bir muammo geografiya xonasining yo‘qligi. Aholi kamchilikni tashkil etadigan chekka qishloqlardagi maktablarda moddiy texnik bazasi yetishmasa, aholi zich yashaydigan shahar maktablarida o‘quvchi soni ko‘pligi sababli barcha fanlar bitta sinfda o‘tiladi. Bunday maktablarda geografiya xonasini tashkil etish muammo. Ya‘ni geografiya xonasi sifatida geografik xarita va globuslar bilan to‘ldirilgani bilan barcha darslarda ushbu xonadan foydalanishni iloji yo‘q.

Shu bilan birgalikda kitob do‘konlarida geografik xaritalarning turlari kamligi ham geografiyaga qiziquvchi o‘quvchilarni xaritani o‘rganishiga to‘sqinlik qiladi. Hozirgi kunda kitob do‘konlarida geografik xaritalarning o‘zbek tilidagi 4 ta turini uchratish mumkin. Bular “Dunyoning siyosiy xaritasi”, “Dunyoning tabiiy xaritasi”, “O‘zbekistonning ma‘muriy-siyosiy xaritasi” va “O‘zbekistonning tabiiy xaritasi”. Lekin ushbu xaritalarni darsda ko‘rgazma qurol sifatida ishlatish bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Ya‘ni ushbu xaritalardagi shartli belgilar va yozuvlar juda mayda yozilgan bo‘lib sinf xonasidagi o‘quvchilar xaritani o‘rganishda masofa uzoqligi tufayli yozuvlarni o‘qiy olmaydi. Kitob do‘konlari nafaqat o‘zbek tilidagi balki rus va ingliz tilidagi xarita va globuslarni ham uchratish mumkin. Ushbu horijiy tildagi xarita va globuslarning bir qancha afzallik va kamchiliklari ham bor.

Misol uchun horijiy tildagi xarita va globuslarning afzalligi shundaki o'quvchi horijiy tilda yozilgan geografik atamalarni o'zbek tiliga tarjima qilib tushunadi va til boyligi ham oshadi. Ushbu horijiy tildagi xarita va globuslarning kamchiligi esa ularda dunyo okeani 5 ta okeanga ajratilgan. Bizning darsliklarimizda esa dunyo okeani 4 ta okeanga ajratilgan. Bu kabi geografik obyektlardagi tafovutlar o'quvchi uchun bir qancha tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Va biz qachongacha xorijning mukammal sifatli xaritalariga havas qilamiz. Bizning kitob do'konlarimizda ham o'zbek tilidagi mukammal, sifatli va xilma-xil mavzudagi va xilma-xil hajmdagi xarita va globuslar bo'lishini xohlaymiz.

Bundan tashqari geografiya darslarida 5-9 sinflar uchun mo'ljallangan atlaslar yetishmasligi va ushbu atlaslarni sotib olishga barcha o'quvchilarning qurbi yetmasligi ham muammo. O'rtacha hisobda bitta sinfdan 30 ta o'quvchidan ko'pi bilan 6-8 ta o'quvchi atlas sotib olishi mumkin. Atlasni sotib olish bilan muammo hal bo'lganida qani edi. Agar barcha o'quvchilar atlas bilan taminlangan taqdirda ham dars davomida xarita bilan ishlash uchun vaqt yetishmaydi. Haftasiga 1, 1,5 yoki 2 soatga mo'ljallangan darslikdagi 34, 51 yoki 68 soat o'quv rejada faqatgina mavzular bilan ishlash qambar olingan. Vaholangki, atlas va xarita bilan ishlash uchun darslikdagi mavzulardan tashqari kamida haftasiga yana 1 soat ajratilishi lozim.

### **NATIJARLAR VA ULARNING MUHOKAMASI.**

Geografiya ta'limi sifat va samaradorligini oshirishning tashkiliy pedagogik jihatlari, ya'ni o'quv muassasalarini umumgeografiya va mavzuli devoriy xaritalar, topografik xaritalar, o'quv globuslari, atlaslar, yozuvsiz xaritalar va geografik asbob uskunalari (kompas, barometr, anemometr, fluger va boshq.) bilan ta'minlashni takomillashtirish zarur. Ma'lumki, xaritasiz geografiya ta'limiy jarayonini tasavvur qilish qiyin. Ta'lim amaliyotida bugungi kunda asosan "Dunyoning siyosiy xaritasi", "Dunyoning tabiiy xaritasi", "O'zbekistonning ma'muriy-siyosiy xaritasi" va "O'zbekistonning tabiiy xaritasi" xaritalaridan foydalaniladi. Bu ham o'qituvchining shaxsiy tashabbusi yoki moddiy holati bilan bog'liq. Amalda esa 5-9 sinf geografiya

ta'limi uchun 40 dan ortiq mavzudagi devoriy geografik xaritalar talab qilinadi. Ushbu xaritalarni yaratish va uni nashr qilish uchun "Kartografiya" ilmiy ishlab chiqarish davlat korxonasida ilmiy texnik salohiyat yetarli. Lekin buning uchun yuqoridagi xaritalar Xalq ta'limi vazirligi yoki ushbu jarayonga mutasaddi bo'lgan tashkilotlar tomonidan buyurtma qilinishi va ular umumiy o'rta ta'lim maktablariga tarqatilishi lozim.

### **XULOSA.**

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, geografiya ta'limi jarayonida o'quv atlaslari va yozuvsiz xaritalar bilan ta'minlanish va undan foydalanishda ham muammolar mavjud. Fikrimizcha, o'quv atlaslari darsliklarga qo'shimcha majburiy manba sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablariga yetkazib berilishi lozim.

O'qituvchilar, ayniqsa, yosh o'qituvchilarning dars jarayonida mavzuli xaritalardan, o'quv atlaslari va yozuvsiz xaritalardan, globuslardan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish zarur. Buning uchun Xalq ta'limi vazirligining o'quv dasturlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish va xaritalardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan o'quv va metodik qo'llanmalarni yaratish talab qilinadi.

Yoki 2022-yilda 7 va 10 sinflar uchun yangi taxrirdagi darsliklar chop etildi. Yangi darsliklar hajmi katta va mavzuga oid xaritalarga boy. Misol uchun 7-sinflar uchun mo'ljallangan geografiya darsligida materik va okeanlar mavzusiga oid bir qancha mavzuli xaritalar mavjud bo'lib ushbu sinf uchun o'quvchi atlas sotib olishi ham shart emas. Faqatgina ushbu kitobdagi mavzuli xaritalarga moslab yozuvsiz xaritalar ishlab chiqib kitob do'konlariga sotuvga chiqarish kerak. Ya'ni 7-10 sinflar uchun chop etiladigan yangi taxrirdagi darsliklarda mavzuli xaritalar sonini ko'paytirish va ushbu darsliklar uchun yozuvsiz xaritalar ishlab chiqarish talab qilinadi. Shunda atlaslar bilan ishlashdagi muammo hal bo'lib, o'quvchi ortiqcha pul sarflab atlas sotib olib o'tirmaydi va atlaslar bilan ishlashdagi muammo hal bo'ladi. Mavzuli xaritalarni tushuntirishda va mavzuli xaritalarni yozuvsiz xaritaga tushirishda uyga vazifa sifatida berish ancha osonlashadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirzaliyev T. va boshqalar. “Kartalar va ulardan maktabda geografiya darslarida foydalanish”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1977.
2. Мирзалиев Т. “Картография” Тошкент, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 2006.
3. Xamilov A. “Geografiya fanidan turli boshqotirmalar to‘plami”
4. Mirzaliyev T., Musayev I. “Kartografiya” Toshkent . «ILM ZIYO» 2007.
5. Mirzaliyev T., Safarov E. Yu., Egamberdiyev A., Qoraboyev J. S . “Kartashunoslik” Toshkent, Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2012.
6. Reymov P., Uzaqbaev J. “Kartografiya” Nukus 2013.
7. Negmatov S. Q. “ТОПОГРАФИЯ ВА КАРТОГРАФИЯ ASOSLARI *fanidan* MA’RUZALAR MATNI” Navoiy 2016.
8. Vaxobov H., Mirzamuhammedov O. T. “Geografiya o‘qitish metodikasi” Namangan 2016.
9. Muqumova H. “GEOGRAFIYA O‘QITISH METODIKASI” fanidan O‘QUV-USLUBIY MAJMUA, QARSHI 2017.
10. Vaxobov H., Alimqulov N. R., Sultanova N. B. “Geografiya o‘qitish metodikasi” Toshkent 2020.